

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	



FRANSUZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI

Ma’rupova Gulnoz

BuxDU tayanch doktranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz, rus va o‘zbek tillaridagi sport turizm terminlari leksik-semantik hamda lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda sport turizmi terminlarining shakllanish manbalari, semantik guruhlari, xalqaro va milliy qatlamlari, o‘zlashma va kalka birliklarning o‘rni, shuningdek, terminlarning lingvomadaniy yuklamasi yoritiladi. Tahlil natijalari fransuz tilida sport turizmi terminlari ko‘proq tarixiy-geografik va tabiiy muhit bilan bog‘liq milliy nomlash modellariga tayanishini, rus tilida esa internatsional birliklar bilan bir qatorda tavsifiy va kalka tipidagi terminlar faol ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida sport turizmi terminologiyasi, asosan, xalqaro terminlar, rus tili orqali kirgan birliklar va milliy tavsifiy nomlash modellari uyg‘unligida shakllanayotgani aniqlanadi. Maqolada sport turizm terminlarining leksik-semantik tasnifi va lingvomadaniy xususiyatlari asosida ularni standartlashtirish masalalariga ham e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: sport turizmi, termin, terminologiya, leksik-semantik xususiyat, lingvomadaniyat, fransuz tili, rus tili, o‘zbek tili, o‘zlashma termin, kalka.

Abstract. This article presents a comparative lexical-semantic and linguocultural analysis of sports tourism terms in the French, Russian, and Uzbek languages. The study examines the sources of formation of sports tourism terms, their semantic groups, international and national layers, the role of borrowed and calqued units, as well as the linguocultural load of the terms. The results of the analysis show that in French, sports tourism terms rely more on national naming models associated with historical-geographical factors and the natural environment, while in Russian, descriptive and calque-type terms are actively used alongside international units. In Uzbek, sports tourism terminology is formed mainly through the interaction of international terms, units borrowed through the Russian language, and national descriptive naming models. The article also pays attention to the issues of standardization of sports tourism terms on the basis of their lexical-semantic classification and linguocultural features.

Keywords: sports tourism, term, terminology, lexical-semantic feature, linguoculture, French language, Russian language, Uzbek language, borrowed term, calque.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный лексико-семантический и лингвокультурологический анализ терминов спортивного туризма во французском, русском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются источники формирования терминов спортивного туризма, их семантические группы, международные и национальные пласты, роль заимствованных и калькированных единиц, а также лингвокультурная нагрузка терминов. Результаты анализа показывают, что во французском языке термины спортивного туризма в большей степени опираются на национальные модели номинации, связанные с историко-географическими факторами и природной средой, тогда как в русском языке наряду с интернациональными единицами активно функционируют описательные и калькированные термины. В узбекском языке терминология спортивного туризма формируется в основном во взаимодействии интернациональных терминов, единиц, вошедших через русский язык, и национальных описательных моделей номинации. В статье также уделяется внимание вопросам стандартизации терминов спортивного туризма на основе их лексико-семантической классификации и лингвокультурных особенностей.

Ключевые слова: спортивный туризм, термин, терминология, лексико-семантическая особенность, лингвокультура, французский язык, русский язык, узбекский язык, заимствованный термин, калька.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida sport va turizm sohalarining o‘zaro integratsiyasi natijasida yangi terminologik qatlam shakllanmoqda. Sport turizmi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy hodisa, balki ko‘p tilli diskursda faol qo‘llaniladigan maxsus terminologik tizim hamdir. UN Tourism ta’rifiga ko‘ra, sport turizmi sayyohning sport tadbirida tomoshabin yoki faol ishtirokchi sifatida **qatnashishi** bilan bog‘liq sayohat tajribasini ifodalovchi turizm faoliyatidir [1]. Ushbu ta’rif sport turizmi terminologiyasining ikki asosiy komponentini - “sport” va “sayohat/turizm” unsurlarini birlashtirgan murakkab soha ekanini ko‘rsatadi.

Turizm terminologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu qatlamning dinamik, ko‘p manbali va lingvomadaniy jihatdan belgilangan tizim ekanini ko‘rsatadi [2], [3]. Fransuz va rus tillaridagi turizm terminlari



yuzasidan olib borilgan qiyosiy izlanishlarda terminlarning semantik tuzilishi, milliy-madaniy konnotatsiyasi va sohaviy differensiallashuvi alohida qayd etilgan [2]. Sport terminologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda esa xalqaro sport leksikasining muhim qismi ingliz, fransuz, lotin va yunon manbalaridan kelib chiqqani, ko'plab tillarda ular fonetik va grafik moslashtirish asosida faol o'zlashtirilgani ta'kidlanadi [4], [5]. O'zbek tilida sport terminlari tizimi bo'yicha ishlar ham mavjud bo'lib, ularda terminlarning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari, o'zlashuv mexanizmlari va normativ qo'llanishi masalalari ko'rilgan [4]-[6].

Mazkur maqolaning maqsadi fransuz, rus va o'zbek tillaridagi sport turizmi terminlarini leksik-semantik va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport turizmi terminologiyasi va uning lingvistik xususiyatlarini o'rganish so'nggi yillarda terminologiya, sotsiolingvistik hamda lingvomadaniyat yo'nalishlarida dolzarb tadqiqot obyektlaridan biriga aylangan. Turizm va sport sohalarining integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan terminologik birliklar nafaqat maxsus soha leksikasini, balki muayyan xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini ham aks ettiradi.

Terminologiya nazariyasining ilmiy asoslari avstriyalik olim Karl Vüster tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u terminlarni maxsus soha tushunchalarini ifodalovchi standart birliklar sifatida talqin qilgan. Keyinchalik M.T. Kabré terminologiyani til, bilim va kommunikatsiya kesishgan nuqtada shakllanuvchi tizim sifatida baholab, terminlarning semantik va pragmatik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Rus tilshunosligida V.M. Leychik terminologik tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etib, terminlarning milliy va xalqaro qatlamlarini ajratib ko'rsatgan. A.V. Superanskaya esa terminlarning nominativ xususiyatlari hamda ularning turli tillarda moslashuv mexanizmlarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlar sport va turizm terminologiyasini qiyosiy tahlil qilish uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Lingvomadaniyat nazariyasining rivojlanishida V.A. Maslova, V.V. Vorobyov va Yu.S. Stepanovlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Mazkur olimlar til birliklari, jumladan terminlar milliy madaniyat va mentalitet bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, terminlar nafaqat ilmiy tushunchani, balki muayyan xalqning madaniy tajribasini ham ifodalaydi.

Fransuz tilidagi turizm va sport terminologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda J.-M. Dewailly hamda É. Flament sport turizmining rivojlanishi bilan bog'liq terminlarning shakllanish manbalari va semantik taraqqiyotini tahlil qilganlar. Ular fransuz tilida ko'plab sport turizmi terminlari tabiiy-geografik muhit va milliy sport madaniyati bilan bog'liq holda vujudga kelganini qayd etadilar.

O'zbek tilshunosligida H. Dadaboyev, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev va B. Yo'ldoshevlarining terminologiya sohasidagi tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Ular o'zbek terminologiyasining shakllanishi, o'zlashma terminlarning moslashuvi, terminlarning semantik va struktur xususiyatlarini o'rganganlar. Sport terminologiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda esa xalqaro terminlarning o'zbek tiliga kirib kelishi, ularning fonetik va semantik moslashuvi hamda milliy muqobillar yaratish masalalari yoritilgan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili sport turizmi terminologiyasining leksik-semantik va lingvomadaniy jihatdan yetarlicha o'rganilgan ayrim jihatlari mavjud bo'lsa-da, fransuz, rus va o'zbek tillari materiallari asosida kompleks qiyosiy tadqiqotlar yetarli emasligini ko'rsatadi. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiali sifatida fransuz, rus va o'zbek tillarida sport turizmi bilan bog'liq faol qo'llanadigan terminlar tanlab olindi. Ular orasiga piyoda turizm, tog' turizmi, suv turizmi, ekstremal turizm, alpinizm, sportcha mo'ljal olish, trekking, rafting, speleoturizm, canoe-kayak kabi birliklar kiritildi. Tahlilda qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, **komponent tahlili**, tavsifiy va lingvomadaniy yondashuvlardan foydalanildi. Terminlar uch tildagi qo'llanish xususiyatiga ko'ra semantik guruhlariga ajratildi va ularning nomlash modeli hamda madaniy asoslari izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Sport turizm terminlarining leksik-semantik tabiati

Sport turizmi terminologiyasi ikki terminologik maydon - sport va turizm - tutashuvida shakllanadi. Shu sababli bu qatlamdagi birliklar bir vaqtning o'zida harakat, marshrut, ishtirok, jihoz, tabiiy makon, musobaqa, xavf, dam olish va ekstremallik kabi semantik belgilarni birlashtiradi. Semantik jihatdan bu terminlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Faoliyat turi nomlari: trekking, rafting, alpinizm, speleoturizm, orientir sporti.

Marshrut va harakat bilan bog'liq terminlar: piyoda yo'nalish, tog' marshruti, suv yo'li, ekspeditsiya.

Tabiiy-makoniyl terminlar: tog' yonbag'ri, darra, g'or, daryo oqimi, qoya.

Jihoz va texnika terminlari: arqon, kaska, kayak, karabin, qutqaruv anjomlari.

Tashkiliy va musobaqaviy terminlar: start, marafon, bosqich, navigatsiya, nazorat punkti.

Bu guruhlar sport turizmi terminologiyasining semantik markazi harakat va makon bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Turizm terminologiyasi haqidagi tadqiqotlarda ham semantik tizimning ko'p qatlamlilik va sohaviy differensiallashuvi qayd etilgan [2], [3].

2. Fransuz tilida sport turizmi terminlarining xususiyatlari

Fransuz tilida sport turizmi leksikasi tabiiy landshaft, tog' madaniyati va dam olishning faol shakllari bilan yaqin aloqada rivojlangan. Ayniqsa, Alp hududi bilan bog'liq tarixiy tajriba natijasida ayrim terminlar fransuz tilida milliy-madaniy rangga ega bo'lgan. Masalan, randonnée, alpinisme, spéléologie, escalade, canoë-kayak, sports de nature kabi birliklar fransuz tilida nafaqat sport faoliyati nomi, balki muayyan madaniy turmush tarzi va dam olish modeli bilan ham bog'langan.

Fransuz turizm leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari haqidagi tadqiqotlar bu qatlamda tarixiy, geografik va ijtimoiy tajriba muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [7]. Masalan, randonnée termini oddiy "yurish" ma'nosini emas, balki tabiat qo'ynida tashkil etilgan, maqsadli, ko'pincha rekreativ yoki sport xarakteridagi yurishni anglatadi. Xuddi shuningdek, alpinisme atamasi ham faqat tog'ga chiqish emas, balki fransuz va Yevropa tog' madaniyatining tarixiy shakllangan amaliyotini ifodalaydi.

Demak, fransuz tilida sport turizm terminlari ko'pincha:

- milliy nomlash an'anasiga tayanadi;
- tabiiy-makoniyl tajriba bilan bog'liq bo'ladi;
- ko'p hollarda xalqaro terminologiyaga manba vazifasini bajaradi.

3. Rus tilida sport turizm terminlarining xususiyatlari

Rus tilida sport turizmi terminologiyasi ikki qatlam asosida rivojlangan:

- a) xalqaro va internatsional birliklar;
- b) tavsifiy va kalka asosidagi birliklar.

Masalan, альпинизм, рафтинг, треккинг, спелеотуризм kabi terminlar xalqaro shaklda faol qo'llanadi. Biroq shu bilan birga, rus tilida пешеходный туризм, горный туризм, водный туризм, спортивное ориентирование kabi ancha shaffof va tavsifiy birliklar ham keng ishlatiladi. Bu xususiyat rus terminologiyasining izohlovchi va tasniflovchi imkoniyati kuchli ekanini ko'rsatadi.

Turizm terminlarining semantik xususiyatlariga oid tadqiqotlarda rus tilida tavsifiy terminlar va internatsional birliklarning parallel mavjudligi qayd etilgan [3]. Bu xususiyat sport turizmi terminologiyasida ham yaqqol ko'rinadi. Masalan, спортивное ориентирование termini o'z semantik tarkibi bilan faoliyatning mohiyatini ochib beradi: sport + mo'ljal olish. Shunday ekan, rus tilida terminlar ko'pincha semantik shaffoflikka ega bo'lib, mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchi uchun ham qisman tushunarli bo'lishi mumkin.

4. O'zbek tilida sport turizm terminlarining xususiyatlari

O'zbek tilidagi sport turizmi terminologiyasi hali shakllanish va standartlashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu qatlamda uch asosiy manba ko'zga tashlanadi:

Xalqaro o'zlashmalar: alpinizm, rafting, trekking, kayak, marafon.

Rus tili orqali kirgan yoki rus modeli ta'sirida shakllangan birliklar: sportcha mo'ljal olish, tog' turizmi, suv turizmi.

Milliy tavsifiy modellarga asoslangan birliklar: piyoda sayohat, tog' sayohati, yo'nalish xaritasi, qutqaruv anjomi.

O'zbek sport terminologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda sport leksikasining katta qismi o'zlashma birliklardan iborat ekani, biroq ular til tizimiga fonetik, grafik va semantik jihatdan moslashtirilishi zarurligi ta'kidlanadi [4]-[6]. Masalan, rafting va trekking terminlari xalqaro shaklda qo'llanayotgan bo'lsa, sportcha mo'ljal olish yoki piyoda turizm singari birliklar tavsifiy milliy model asosida tuzilgan.

O'zbek tilida bu terminlarning lingvomadaniy jihati shundaki, ular ko'pincha faqat maxsus faoliyatni emas, balki jismoniy chiniqish, tabiat bilan uyg'unlik, jamoaviylik va sog'lom turmush tarzi g'oyalarini ham aks ettiradi. Shu sababli o'zbek sport turizmi terminologiyasi nafaqat o'zlashuv mahsuli, balki milliy madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashayotgan tizim sifatida baholanishi mumkin.

5. Qiyosiy leksik-semantik tahlil

Uch til materiallari shuni ko'rsatadiki, sport turizmi terminlari semantik tashkil topishi nuqtai nazaridan umumiylik va farqlilikni namoyon qiladi.

Birinchiidan, barcha uch tilda xalqaro terminlar faol qatlamni tashkil etadi. Bu sport turizmining global soha ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, fransuz tilida terminlar ko'proq tarixiy-madaniy va geografik manbaga tayansa, rus tilida



internatsional va tavsifiy modellar birga ishlaydi.

Uchinchidan, o'zbek tilida esa internatsional birliklar va milliy tavsifiy birliklarning raqobati kuzatiladi.

Masalan:

- randonnée - пешеходный туризм / трекинг - piyoda turizm / trekking
- alpinisme - альпинизм - alpinizm
- spéléotourisme / spéléologie - спелеотуризм - speleoturizm
- sports de nature - виды активного туризма на природе - tabiat qo'ynidagi faol sport turizmi turlari

Bu qiyosiy juftliklar shuni ko'rsatadiki, fransuz tilida ko'pincha nisbatan ixcham va tarixan shakllangan nomlash modeli ustun, rus tilida tavsifiylik kuchli, o'zbek tilida esa normativ tanlov va standartlashuv masalasi dolzarbdir.

6. Lingvomadaniy xususiyatlar

Lingvomadaniy nuqtai nazardan sport turizmi terminlari har bir tilda o'sha xalqning tabiatni idrok etishi, faol dam olishga munosabati va sport madaniyati bilan bog'liq. Fransuz tilida tog' va tabiat bilan bog'liq faoliyat romantik-ekologik va rekreativ madaniyat bilan uzviy aloqada bo'lsa, rus tilida sport turizmi ko'proq marshrut, sinov, tayyorgarlik va jismoniy chidamlilik semantikasi bilan bog'lanadi. O'zbek tilida esa sport turizmi terminlari tobora ko'proq sog'lom turmush tarzi, ekologik turizm, yoshlar faolligi va hududiy turizm salohiyati bilan bog'lanib bormoqda.

Shu ma'noda sport turizmi terminlari oddiy nomlash birliklari emas, balki muayyan lingvomadaniy tajribaning tilga ko'chgan shakllaridir. Bu jihat ularni qiyosiy lingvomadaniy tadqiq etishni zarur qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fransuz, rus va o'zbek tillari sport turizm terminologiyasi qiyosiy tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Sport turizmi terminologiyasi sport va turizm sohalari tutashuvida shakllangan murakkab terminologik tizimdir.
2. Ushbu terminlar leksik-semantik jihatdan faoliyat turi, makon, jihaz, marshrut va tashkiliy birliklar kabi guruhlarga ajraladi.
3. Fransuz tilida sport turizmi terminlari tarixiy-geografik va milliy nomlash an'anasi bilan kuchli bog'langan.
4. Rus tilida tavsifiy, kalka va internatsional terminlar parallel qo'llanadi.
5. O'zbek tilida sport turizmi terminologiyasi xalqaro o'zlashmalar, ruscha model va milliy tavsifiy birliklar uyg'unligida rivojlanmoqda.
6. Lingvomadaniy jihatdan sport turizmi terminlari har bir tilda o'sha xalqning tabiat, harakat, sport va rekreatsiya haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi.
7. O'zbek tilida sport turizmi terminlarini standartlashtirish, ularning izohli va qiyosiy lug'atini yaratish kelgusidagi muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1] UN Tourism. Sports Tourism.
- 2] Marupova G. U. Lexical-Semantic, Linguo-Culturological Study of Tourism Terms of the French and Russian Languages // Indonesian Journal of Innovation Studies. 2022. Vol. 18.
- 3] Turgunbaeva G. T. Semantic Peculiarities of Tourism Terms in the English and Russian Languages // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. 2024.
- 4] Abdugappar o'g'li A. N. Sport Terms Borrowed from Different Languages into Uzbek // International Journal of Linguistics, Literature and Translation. 2019.
- 5] Raximova K. Particulars of Sports Terminology // International Journal of Online Teaching. 2023.
- 6] Sarimsokov X. A. Sport Terms in English and Uzbek: Analysis and Research. 2023.
- 7] Linguistic and Cultural Characteristics of Tourism Vocabulary in French // International Journal of Multidisciplinary Research and Development. 2026.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100